

SHAFTOLI KO'CHATLARINI PAYVANDDAN KEYINGI FENOLOGIK KUZATUVLARI

Alisher Botirov

Akademik Mahmud Mirzayev nomli bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti doktoranti (DSc)

Norqul Quysinboyev

Oybek Aliyev

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti magistrantlari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shaftoli payvandtagi va urug' ko'chatlarini o'sish ko'rsatkichlari keltirilgan. Bunda urug' ko'chatga nisbat qilib Meroblana payvandtagi olingan. Olingan natijalar asosida Meroblanada bir vegetatsiya davomida novda uzunligi 10.3 cm ni tashkil qilgan bo'lsa, urug' ko'chatda bu ko'rsatkich 14.8 cm tashkil qilmoqda.

Kalit so'zlar: Meroblana, urug' ko'chat, novda soni, novda uzunligi.

KIRISH

Shaftoli ra'nodoshlar oilasiga mansub ko'p yillik meva daraxti hisoblanib mamlakatimiz 108679 ga (2021-yilda) yer maydonlarida fermer, dehqon va boshqa qishloq xo'jaligida faoliyat olib borayotgan soha vakillari tomonidan yetishtiriladi. Kunimizda jahonning turli mintaqalarida kuzatilayotgan global iqlim o'zgarishi sharoitida sifatli va bozor talablariga mos ko'chatlar yetkazib berish dolzarb muammolardan biri sifatida qaraladi. Ko'chatlarni sifati yaxshiligi nafaqat uni bozorgirlikni oshirib qolmasdan yosh bog'zorlar tashkil qilish vaqtida ham qo'l keladi. Bunda ularning yaxshi o'sishi va o'tkazilgandan keyin yaxshi yerga o'rnatilish ketishi hamda tuproq ildiz otishi payvandtaglarga ham bog'liq bo'ladi.


Bugungi kunda shaftoli payvandtagi sifatida Garnem, GF 677 va Controller kabi payvandtaglardan keng foydalanilmoqda. Myrobalan payvandtagi asosan olxo'ri va o'rik uchun foydalaniladi. Myrobalan o'rta kuchli o'suvchi payvandtag hisoblanib yerga o'tqazilganidan keyin tuproq sharoitiga yaxshi moslashadi va ildiz olishida ham yaxshi natijalar ko'rsatadi. Ushbu maqolada Merobalan payvandtagiga ulangan shaftoli o'sishi kuzatuvlari tadqiq qilingan [1; 2; 3; 4].

MATERIALLAR VA METODLAR

Ushbu tadqiqot ishi Akademik m.Mirzayev nomli bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti Charxin ilmiy-tajriba stansiyada olib borildi. Shaftolining Merobalan payvandtagi 2022-yilning mart oyida ekildi. Urug‘ ko‘chatlar esa 2022-yilni oktabr oylarida ekilgan. Shaftolining Lola navi 2022-yilning avgust oyida Merobalan payvandtagiga payvand qilingan. Kuzatuvlarni o‘tkazish umumqabul qilingan usullar yordmida amalga oshirildi.


NATIJALAR

Meroblana payvandtagiga ulangan Lola shaftoli navining aprel-sentabr oylarida novdalar soni va uzunligi bo‘yicha ko‘rsatkichlari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Meroblana payvandtagiga ulangan Lola nomli shaftolining Aprel va Sentabrda oylaridagi fenologik ko‘rsatkichlari 2022-yil. A) MNS I-Meroblana novdalar soni Aprel oyida; MNS II-Meroblana novdalar soni Sentabr oyida; B) MNU I-Meroblana novdalar uzunligi Aprel oyida; MNU II-Meroblana novdalar uzunligi Sentabr oyida.

Bunda novdalar soni o'zgarishi apreldan sentabrga o'rtacha 1.7 donadan 2.2 donaga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Novdalar uzunligi esa mos ravishda 6.9 cmdan 10.3 cm ga o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin.



2-rasm. Urug' ko'chatlarning Aprel va Sentabr oylaridagi fenologik ko'rsatkichlari, 2022-yil. A) UNS I-Urug' ko'chatlari novda soni Aprel oyidagi, UNS II-Urug' ko'chatlari novda soni Sentabrda; B) UNU I-Urug' ko'chatlari uzunligi Aprel oyida, UNU II-Urug' ko'chatlari uzunligi Sentabrda.

Urug' ko'chatlarning aprel oyidan sentabr oyigacha bo'lgan kuzatuvlari natijasi 2-rasmda o'z aksini topgan. Urug' ko'chatlari aprel oyida 1 dona bo'lgan bo'lsa bu ko'rsatkich sentabrga kelib 3.1 donaga yetgan ya'ni apreldan sentabrga 2 taga ko'paygan. Urug' ko'chatlarda novda uzunligini o'zgarishi aprel oyida 6.6 cm bo'lgan bo'lsa bu Sentabrga kelib 14.8 cm gacha o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

Meroblana va urug' ko'chatlarni solishtiradigan bo'lsak Meroblana payvandtagini ko'rsatkichlari yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra urug' ko'chatga nisbatan past ko'rsatkichda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun Meroblana payvandtagida bir o'suv davri davomida jami novdalar soni 2.2 dona ni tashkil etgan bo'lsa bu urug' ko'chatda 3.1 donani tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Novdalar uzunligi bo'yicha ham taqqoslaydigan bo'lsak Meroblana payvandtagida butun o'suv davri davomida 10.3 cm ni tashkil qilgan, bu ko'rsatkich urug' ko'chatda 14.8 cm ni tashkil qilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Meroblanada ulangan shaftoli ko'chatlarini o'sishi yaxshi darajada deb hisoblashimiz

mumkin, sababi odatda urug‘ ko‘chatda o‘tqazilgan ko‘chatlar kuchli o‘suv kuchiga ega bo‘ladi.

REFERENCES

1. A.A.Ribakov, S.A.Ostrouxova (1981). O‘zbekiston mevaligiligi. O‘qituvchi. Toshkent, 34-35 betlar.
2. Botirov, A. Promoting Young Apple Tree Growth after Planting in Water Limited Areas.
3. Ботиров, А. Э., Бойжонов, У. М., & Рустамова, Г. А. (2022). ШАФТОЛИНИНГ ТУРЛИ НАВЛАРИНИ КАСАЛЛИК ЗАРАРКУНАНДАЛАРГА ҚАРШИ ЧИДАМЛИЛИГИНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ АСОСЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(7), 176-182.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi (2022). 2021 YILDA QISHLOQ XO‘JALIGI EKINLARINING EKIN MAYDONI, BOG‘LAR, UZUMZORLAR MAYDONI, YALPI HOSIL VA HOSILDORLIK. Toshkent, 140-143, 160-163-betlar.

